



**YANGI GEOSIYOSIY MUAMMOLAR KONTEKSTIDA
MARKAZIY OSIYODA INTEGRATSIYA JARAYONLARI**

Kamolova Sevara Azmiddin qizi

**1st-year student of the Faculty of History and Law,
Bukhara State University.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari yangi geosiyosiy muammolar kontekstida tahlil qilinadi. Mintaqaviy hamkorlikning rivojlanish bosqichlari, mavjud to‘siqlar va istiqbollar o‘rganilib, Rossiya-Ukraina mojarosi, Afg‘onistondagi beqarorlik va yirik davlatlarning ta‘siri asosiy geosiyosiy omillar sifatida baholanadi. Shuningdek, iqtisodiy, transport va xavfsizlik sohalarida integratsiyani rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы интеграции в Центральной Азии в контексте новых геополитических вызовов. Анализируются этапы развития регионального сотрудничества, существующие барьеры и перспективы. Основными геополитическими факторами рассматриваются конфликт между Россией и Украиной, нестабильность в Афганистане и влияние крупных держав. Кроме того, предлагаются рекомендации по развитию интеграции в экономической, транспортной и безопасности сферах.

Abstract: This article examines the integration processes in Central Asia in the context of new geopolitical challenges. It analyzes the stages of regional cooperation development, existing barriers, and future prospects. The main geopolitical factors include the Russia-Ukraine conflict, instability in Afghanistan, and the influence of major global powers. Additionally, recommendations for strengthening integration in economic, transport, and security sectors are provided.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, geosiyosat, integratsiya, mintaqaviy hamkorlik, xalqaro munosabatlar, iqtisodiy hamkorlik.

Ключевые слова: Центральная Азия, геополитика, интеграция, региональное сотрудничество, международные отношения, экономическое сотрудничество.

Keywords: Central Asia, geopolitics, integration, regional cooperation, international relations, economic cooperation.



Markaziy Osiyo geosiyosiy jihatdan muhim mintaqalardan biri bo'lib, uning davlatlari iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqillikka erishganidan keyin mintaqa davlatlari o'zaro hamkorlikni rivojlantirish va integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish yo'lida turli tashabbuslarni ilgari surishdi. Biroq, xalqaro maydondagi o'zgarishlar, jumladan, Rossiya-Ukraina mojarosi, Afg'onistondagi beqarorlik, Xitoy va AQShning mintaqaviy manfaatlari ushbu jarayonlarning izchil rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Mintaqaviy integratsiya nafaqat iqtisodiy taraqqiyot uchun, balki xavfsizlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, Markaziy Osiyo davlatlari turli formatlarda hamkorlik qilishga harakat qilmoqda. Ammo integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan omillar ham mavjud. Ushbu maqolada yangi geosiyosiy muammolar kontekstida Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlari tahlil qilinadi, mavjud muammolar va istiqbollari o'rganilib, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgach, mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish borasida turli tashabbuslar ilgari surildi. Ushbu jarayonni shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin: mustaqillikdan keyingi dastlabki integratsion urinishlar, transmilliy tashkilotlar doirasidagi hamkorlik va yangi geosiyosiy muammolar sharoitida shakllanayotgan mintaqaviy integratsiya harakatlari.

Birinchi bosqich (1991–2000 yillar): Mustaqillik va dastlabki integratsion urinishlar. Sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlari yangi geosiyosiy muhitda o'z yo'nalishlarini belgilashga harakat qildilar. Biroq, bu davrda mintaqaviy integratsiyaga jiddiy e'tibor qaratilmadi, aksincha, har bir davlat o'z milliy manfaatlari doirasida mustaqil tashqi siyosat yuritdi. Shunga qaramay, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dastlabki tashabbuslar paydo bo'ldi. 1994 yilda Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iziston tomonidan Markaziy Osiyo Hamjamiyati tashkil etildi. Ushbu ittifoq 1998 yilda Tojikistonni ham o'z tarkibiga qo'shgan holda Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati nomiga ega bo'ldi. Ushbu tuzilma iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan bo'lsa-da, amaliy natijalar juda cheklangan edi.

Ikkinchi bosqich (2000–2014 yillar): Transmilliy tashkilotlar doirasidagi hamkorlik. Bu davrda Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy integratsiyani kengroq geosiyosiy doirada amalga oshirishga harakat qildilar. Shu nuqtai nazardan, uchta asosiy tashkilot muhim rol o'ynadi:



1. **Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeOII)** – Rossiya yetakchiligida tuzilgan bu tashkilotga Qozog‘iston va Qirg‘iziston a‘zo bo‘lib, iqtisodiy integratsiya yo‘lida qadam tashladilar.

2. **Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT)** – Xitoy va Rossiya ishtirokida tashkil etilgan bu tuzilma xavfsizlik, iqtisodiy va madaniy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston unga a‘zo bo‘ldi.

3. **Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT)** – bu harbiy-ijtimoiy tashkilot Rossiya boshchiligida shakllangan bo‘lib, mintaqada xavfsizlikni ta‘minlashda muhim o‘rin tutdi.

Bu davrda Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro savdo va transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qator kelishuvlarga erishgan bo‘lsa-da, integratsiyaning tubdan kuchayishi kuzatilmadi. Chunki davlatlar o‘rtasidagi siyosiy ishonchsizlik, suv-energetika masalalaridagi kelishmovchiliklar va geosiyosiy ta‘sirlar mintaqaviy hamkorlikni cheklab turdi.

Uchinchi bosqich (2014 yildan hozirgi kungacha): Yangi geosiyosiy muammolar sharoitida integratsiya. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga intilmoqda. Bunga quyidagi omillar turtki bo‘ldi:

Rossiya-Ukraina mojarosi – Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalar zaiflashishi ortidan Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash zaruratini his qildilar.

Afg‘onistondagi beqarorlik – Tolibonning hokimiyatga qaytishi mintaqada davlatlarini xavfsizlik masalasida yaqinlashishga majbur qildi.

Xitoy va G‘arb davlatlari ta‘sirining oshishi – Xitoyning iqtisodiy ekspansiyasi va G‘arb davlatlarining sarmoya kiritish istagi Markaziy Osiyo davlatlarini o‘z pozitsiyalarini aniq belgilashga majbur qilmoqda. Ushbu bosqichda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik kengayib, 2017 yildan boshlab Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilarining norasmiy sammitlari muntazam o‘tkazila boshlandi. Bu uchrashuvlar doirasida savdo, transport va energetika masalalari muhokama qilinmoqda. Shu bilan birga, yangi transport yo‘laklari – jumladan, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston orqali o‘tadigan **Trans-Kaspiy yo‘lagi** – hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, **Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT)** mintaqada muhim o‘rin egallay boshladi va unga a‘zo davlatlar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib bormoqda.



Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya jarayonlari turli bosqichlardan o'tib, bugungi kunga kelib yangi geosiyosiy muammolar sharoitida yangi bosqichga kirib bormoqda. Ushbu jarayonning barqaror rivojlanishi uchun davlatlar o'zaro ishonchni mustahkamlash, iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirish va xalqaro ta'sirlarga nisbatan mustaqil siyosat yuritishlari lozim. Mintaqaviy hamkorlikning rivojlanishi turli geosiyosiy omillar ta'sirida shakllanadi. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro integratsiyani kuchaytirishga intilayotgan bo'lsa-da, bir qator tashqi omillar bu jarayonning jadallashishiga ham, sekinlashishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu omillar ichida Rossiya-Ukraina mojarosi, Afg'onistondagi beqarorlik va yirik davlatlarning manfaatlar to'qnashuvi alohida ajralib turadi.

Rossiya-Ukraina mojarosi va uning mintaqaga ta'siri haqida to'xtaladigan bo'lsak, 2022-yilda boshlangan bu fojiali urush global geosiyosiy vaziyatni keskinlashtirib, Markaziy Osiyo davlatlari oldida yangi diplomatik va iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi. Mintaqa davlatlari Rossiya bilan yaqin iqtisodiy va siyosiy aloqalarga ega bo'lib, bu mojaro ularning tashqi savdo va moliyaviy tizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Birinchiidan, G'arb davlatlari Rossiyaga qarshi joriy qilgan sanksiyalar mintaqaviy iqtisodiyotga bosim o'tkazdi. Xususan, YeOIga a'zo davlatlar – Qozog'iston va Qirg'iziston – Rossiya bilan iqtisodiy bog'liqlik tufayli G'arb sanksiyalarining bilvosita ta'sirini sezdi. Ikkinchiidan, Rossiyada ishlayotgan migrantlarning daromadlari kamayishi natijasida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, migrantlarning pul o'tkazmalari ushbu davlatlarning yalpi ichki mahsulotiga (YaIM) sezilarli darajada ta'sir qiluvchi omillardan biri bo'lib, Rossiyadagi iqtisodiy cheklovlar ularning moliyaviy barqarorligiga xavf tug'dirdi. Shu bilan birga, Qozog'iston va O'zbekiston kabi davlatlar G'arb bilan hamkorlikni saqlab qolish maqsadida neytral pozitsiyani tanlab, Rossiya bilan aloqalarni muvozanatli yuritishga harakat qilmoqda. Bu esa mintaqadagi tashqi siyosiy strategiyaning yanada murakkablashishiga olib kelmoqda.

Afg'onistondagi beqarorlik va strategik muammolar ham uzoq yillardan beri mintaqaviy xavfsizlik ziddiyatlarining asosiy manbalaridan biri bo'lib kelmoqda. 2021-yilda Tolibon harakatining hokimiyatga qaytishi natijasida bu tahdid yanada kuchaydi. Xususan, Tojikiston va Turkmaniston Afg'oniston bilan uzoq chegaraga ega bo'lib, chegara hududlarida beqarorlik xavfi ortib bormoqda.



Afg‘oniston masalasi mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ham ta‘sir qilmoqda. Bir tomondan, bu davlat Markaziy Osiyo uchun Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkonini beruvchi strategik yo‘lak sifatida qaraladi. Masalan, “Termiz – Mozori Sharif – Pokiston” transport loyihasi va CASA-1000 energetika loyihasi mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, Tolibon boshqaruvi ostidagi Afg‘onistonning noaniq siyosati, ekstremistik guruhlarining faoliyati va inson huquqlari bilan bog‘liq masalalar Markaziy Osiyo davlatlarini ehtiyotkorona yondashishga majbur qilmoqda. O‘zbekiston va Qozog‘iston Afg‘oniston bilan iqtisodiy va gumanitar aloqalarni yo‘lga qo‘yishga harakat qilayotgan bo‘lsa-da, Tojikiston va Turkmaniston bu davlatga nisbatan keskin pozitsiyani saqlab qolmoqda.

Yirik davlatlarning Markaziy Osiyoga ta‘siri sezilarli bo‘lib, Rossiya, Xitoy va AQSh kabi yirik davlatlar mintaqada o‘z ta‘sirini saqlab qolish yoki oshirishga intilmoqda. Bu esa mintaqaviy integratsiyaning murakkablashishiga olib kelmoqda.

Rossiya uzoq yillardan beri Markaziy Osiyoni o‘zining geosiyosiy ta‘sir doirasidagi hudud sifatida ko‘rib kelmoqda. Moskva mintaqada harbiy va siyosiy ta‘sirini saqlash uchun KXShT va YeOII kabi tashkilotlardan foydalanmoqda. Ammo Rossiya-Ukraina mojarosidan keyin Rossiyaning ta‘siri nisbatan zaiflashib, mintaqada davlatlari tashqi siyosatda mustaqillik sari harakatlana boshladi.

Xitoy esa asosan iqtisodiy ta‘siri bilan ajralib turadi. Pekin “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida Markaziy Osiyoda yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqda. Xususan, Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li, neft va gaz quvurlari hamda sanoat investitsiyalari mintaqada davlatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, Xitoyning iqtisodiy ekspansiyasi ba‘zi mintaqada davlatlarida qarshiliklarga ham duch kelmoqda. Masalan, Qozog‘istonda Xitoy sarmoyalariga nisbatan norozilik namoyishlari kuzatilgan.

AQSh mintaqaga demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va xavfsizlik sohasidagi hamkorlik orqali ta‘sir o‘tkazishga harakat qilmoqda. AQSh Markaziy Osiyoda Xitoy va Rossiyaning ta‘sirini cheklash maqsadida, ayniqsa, iqtisodiy loyihalar va harbiy hamkorlikni kuchaytirishga intilmoqda. 2022-yilda bo‘lib o‘tgan “C5+1” formatidagi uchrashuvlar mintaqaga bo‘lgan e‘tiborning oshib borayotganidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyo integratsiya jarayonlari murakkab geosiyosiy sharoitda rivojlanmoqda. Rossiya-Ukraina mojarosi, Afg‘onistondagi beqarorlik va yirik



davlatlarning manfaatlari Markaziy Osiyo davlatlarini murakkab tanlov oldida qoldirmoqda. Mintaqadagi davlatlar tashqi omillar ta'sirini kamaytirish uchun ichki integratsiyani kuchaytirishlari, o'zaro ishonchni mustahkamlashlari va iqtisodiy mustaqillik sari harakat qilishlari zarur. Yuqorida ta'kidlanganidek, Markaziy Osiyo davlatlari tashqi geosiyosiy ta'sirlar, Rossiya-Ukraina mojarosi va Afg'onistondagi beqarorlik fonida o'zaro hamkorlikni kuchaytirishga ehtiyoj sezmoqda. Ushbu muammolar mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga to'siq bo'lishi mumkin, shu sababli integratsiya jarayonlarini rivojlantirish orqali ichki mustahkamlik va tashqi tahdidlarga nisbatan bardoshlilikni oshirish zarur. Integratsiyaning uch muhim yo'nalishi – iqtisodiy hamkorlik, transport infratuzilmasi va xavfsizlik sohasi bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun muhim omildir. Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash esa Markaziy Osiyo davlatlariga tashqi geosiyosiy bosimlarni yumshatish va ichki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu maqsadda, o'zaro **savdo va investitsiya aloqalarini kengaytirish** muhim bo'lib, mintaqa davlatlari erkin savdo shartnomalarini kengaytirish orqali iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishi, shuningdek, qishloq xo'jaligi, energetika va sanoat tarmoqlarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy o'zaro bog'liqlikni kuchaytirishi lozim. Bundan tashqari, **yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy qilish** zarurati ortib bormoqda, chunki mintaqa davlatlari o'z investitsiya fondlarini shakllantirish, qo'shma bank va moliya institutlarini yaratish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashi mumkin. Shuningdek, **mahalliy sanoatni diversifikatsiya qilish** ham ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, Markaziy Osiyo iqtisodiyotining xomashyo eksportiga bog'liqligini kamaytirish uchun innovatsion ishlab chiqarish loyihalarini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport infratuzilmasini takomillashtirish Markaziy Osiyo davlatlari uchun global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va ichki iqtisodiy integratsiyani mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Shu bois, mintaqada **zamonaviy transport yo'laklarini yaratish** dolzarb masala bo'lib, Rossiya-Ukraina mojarosi yuk tashish yo'llari xavfsizligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini hisobga olgan holda, Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'lasi (TITR), Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston temir yo'li va Pokiston–O'zbekiston transport yo'nalishlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak. Bundan tashqari, **tranzit yuk tashish jarayonlarini raqamlashtirish** zarurati ortib bormoqda, chunki bojxona jarayonlarini tezlashtirish va transport xarajatlarini



kamaytirish uchun elektron yuk kuzatuv tizimlari hamda avtomatlashtirilgan bojxona nazorati tizimlarini joriy etish mintaqaviy savdo aloqalarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, savdo jarayonlarini yanada tezlashtirish va logistika tarmoqlarini yaxshilash uchun strategik nuqtalarda **qo'shma logistika markazlarini tashkil etish** muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston-Qozog'iston chegarasida yoki

Xitoy bilan tutash hududlarda bunday markazlarning barpo etilishi mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xavfsizlik sohasida hamkorlikni mustahkamlash mintaqadagi barqarorlik va tahdidlarga qarshi samarali kurashish uchun muhim ahamiyatga ega. Mintaqadagi murakkab geosiyosiy vaziyat, xususan, Afg'onistondagi beqarorlik, xalqaro terrorizm va narkotrafik tahdidlari Markaziy Osiyo davlatlarini bu yo'nalishda yanada yaqin hamkorlik qilishga undamoqda. Birinchidan, **chegaralar xavfsizligini oshirish** zarur bo'lib, ayniqsa, Afg'oniston bilan chegaradosh davlatlar o'zaro axborot almashish tizimini rivojlantirish hamda qo'shma nazorat mexanizmlarini kuchaytirishi lozim. Ikkinchidan, **mudofaa sohasidagi hamkorlikni** kengaytirish talab etiladi, bu esa mintaqa davlatlarining qo'shma harbiy mashg'ulotlar o'tkazishiga va terrorizmga qarshi kurash strategiyalarini uyg'unlashtirishiga imkon beradi; bu tashabbuslar Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT) yoki Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT) doirasida amalga oshirilishi mumkin. Uchinchidan, **terrorizm va ekstremizmga qarshi qo'shma choralar** ko'rish zarurati mavjud bo'lib, bu davlatlarning ekstremizm hamda noqonuniy narkotrafikka qarshi kurashish uchun umumiy axborot tizimlarini yaratishi va xavfsizlik xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashi bilan bog'liq.

Markaziy Osiyo davlatlari oldida turgan asosiy vazifa – mintaqaviy integratsiyani yangi bosqichga olib chiqishdir. Bugungi geosiyosiy sharoit, jumladan, Rossiya–Ukraina mojarosi, Afg'onistondagi beqarorlik va yirik davlatlarning manfaatlari mintaqadagi davlatlarni o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga undamoqda. Shu bois, integratsiyaning iqtisodiy, transport va xavfsizlik yo'nalishlarini rivojlantirish orqali mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga erishish mumkin. Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish Markaziy Osiyoning global iqtisodiy tizimdagi mavqeini oshirish uchun muhim shartlardan biridir. Erkin savdo zonasini shakllantirish, sarmoyaviy muhitni yaxshilash va qo'shma iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish davlatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, energiya resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish orqali iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi.



Transport infratuzilmasini takomillashtirish mintaqa davlatlarining xalqaro bozorlar bilan integratsiyasini jadallashtirish uchun asosiy omil hisoblanadi. Trans-Kaspiy xalqaro transport yo‘lagi, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘li va boshqa muhim yo‘nalishlarni rivojlantirish orqali mintaqaning tranzit salohiyatini oshirish mumkin. Bojxona tizimlarini soddalashtirish, elektron logistika tizimlarini joriy qilish va zamonaviy transport infratuzilmasini shakllantirish orqali iqtisodiy hamkorlikning samaradorligi oshadi.

Mintaqadagi xavfsizlik muammolarining dolzarbligi hisobga olinsa, davlatlar o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashlari zarur. Chegaralarni mustahkamlash, terrorizm va ekstremizmga qarshi qo‘shma strategiyalar ishlab chiqish, mudofaa sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish mintaqaviy barqarorlikning asosiy garovi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish va umumiy xavfsizlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiya jarayonlarini kuchaytirish nafaqat mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlaydi, balki Markaziy Osiyo davlatlariga mustaqil va kuchli geosiyosiy o‘yinchi sifatida shakllanish imkoniyatini ham beradi. Mintaqa ichidagi iqtisodiy, transport va xavfsizlik sohalaridagi o‘zaro bog‘liqlik kuchaygan sari, tashqi ta‘sirlarga nisbatan bardoshlilik ortib, davlatlar o‘z manfaatlarini mustahkam himoya qilishga qodir bo‘ladi. Shu tariqa, Markaziy Osiyo uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tib, global miqyosda mustahkam mavqega ega bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Brzezinski, Z. (1997). *The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives*. p31–50, 123–152.
2. Huntington, S. P. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. p42–78, 183–219.
3. Dadabaev, T. (2018). *China’s Rise and Central Asia: Political, Economic, and Security Implications*. p67–89, 145–172
4. Allison, R. (2004). *Strategic Reassertion in Russia’s Central Asia Policy*. *International Affairs*, p80(2), 277–293.
5. Laruelle, M. (2015). *The Chinese Belt and Road Initiative and its Impact on Central Asia*. *Central Asia-Caucasus Institute*. p15–37.